



UDK: 8.80.800

## TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDA QO‘LLANGAN PARANTEZ BIRLIKLARNING IFODALANISHI.

**D.M.Jamolitdinova**

*Filologiya fanlari doktori, professor*

**Qodirova Mohinur Saydullo qizi**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qo‘llangan parantez birliklar (kirish, kiritmalar)ning semantik jihatdan tadqiqi berilgan. Kirish so‘zlar gapda muallifning asosiy fikrga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Kirishlar matnning yanada tushunarli qilishda foydalaniladi va emotsionallikni ifodalab keldi. Kiritmalar esa fikrimizga qo‘shimcha ma’lumot qo‘shib, uning mazmuniga qo‘shimcha ma’no yuklaydi. Kiritmalar kitobxon asarni to‘liqroq, mustahkamroq tushunishi uchun yordam beradi. Ushbu maqolada badiiy asardagi kirish va kiritmalarning imkoniyatlari chuqurroq o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tohir Malik, kirish, kiritmalar, Shaytanat, kirish va kiritmalarning qo‘llanishi, ularning ma’nolari, estetik ta’sir, paranteza, I.Toshaliyev.

**Аннотация:** В статье представлено семантическое исследование вводных единиц (вступлений, введений), используемых в произведении Тахира Малика «Шайтанат». Вводные слова выражают отношение автора к основной мысли предложения. Введения используются для того, чтобы сделать текст более понятным и выразить эмоции. Дополнения добавляют дополнительную информацию к нашим мыслям и придают дополнительный смысл их содержанию. Введения помогают читателю более полно и основательно понять произведение. В данной статье более подробно рассматриваются возможности введения и вступления в произведении искусства.

**Ключевые слова:** Тахир Малик, введение, вступления, Шайтанат, использование введений и вступлений, их значение, эстетический эффект, вводные предложения, И.Тошалиев.

**Abstract:** This article presents a semantic study of parenthetical units (introductions, introductions) used in Tohir Malik’s work “Shaytanat”. Introductory words express the author’s attitude to the main idea in a sentence. Introductions are used to make the text more understandable and express emotionality. Introductions, on the other hand, add additional information to our thoughts and give additional meaning to its content. Introductions help the

reader to understand the work more fully and firmly. This article examines in depth the possibilities of introductions and introductions in a work of art.

**Keywords:** Tohir Malik, introduction, introductions, Shaytanat, use of introductions and introductions, their meanings, aesthetic effect, parenthesis, I.Toshaliyev.

**KIRISH.** Shuni ta’kidlash joizki bugungi kunda ilm fan sohasida juda ham ko‘plab yangiliklar paydo bo‘lmoqda. Yangidan yangi sohalar paydo bo‘lib tilshunoslik uchun katta hissasini qo‘shib kelmoqda. Shu jihatdan ayrim sohalarga ahamiyat berilmay qolmoqda deyishimiz mumkin. bunga aynan misol qilib paranteza muammosini olishimiz mumkin. Biz ushbu maqolamizda siz bilan parantez birliklarning badiiy matndagi tadqiqini “Shaytanat” asari misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan va uning rivojlanishida o‘zining iste’dodi bilan katta iz qoldirgan yozuvchi Tohir Malik va uning asarlari kitobxon xotirasida yaqqol iz qoldirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Yozuvchining o‘z yo‘li o‘z uslubi bilan boshqa yozuvchilardan farq qiladi. Bunga aynan misol tariqasida “Shaytanat” asarini olishimiz mumkin. Tohir Malikning ushbu asari o‘zbek adabiyotida o‘zining o‘chmas izini qoldirgan va o‘ziga xos o‘ringa ega shoh asar deyishimiz mumkin. Ushbu asar nafaqat o‘zining murakkabligi, voqealar rivoji, asar qahramonlari bilan har qanday inson qalbidan joy oladi. Ushbu asarda qo‘llangan parantez birliklar (kirish, kiritmalar) juda ham mahorat bilan qo‘llangaligini va keng ko‘lamda qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kirish so‘zlar gap bo‘laklari va gaplar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan gapning mazmuniga so‘zlovchining turli munosabatini ifodalovchi so‘zlarga aytiladi. Kirish so‘zlar barcha uslublarga xos bo‘ladi ya’ni hamma uslubda kirish so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Kirish so‘zlar nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini, ekspressivligini ifodalab keladi. Kirishlar gapda ishonch, gumon, tasdiq, fikrni xulosalash, ta’kid, taajjub, mamnunlik, achinish, fikrni kimga tegishli ekanligi, fikrning dalillanishi, avvalgi fikrga munosabat kabi ma’nolarni ifodalab kelishi mumkin. Bunga “Shaytanat” asari bo‘yicha quyidagi tahlillarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

**Hayratlanish:** Ajab, uyga qachon , kim bilan qaytdi ekan [1:8].

**Ishonch:** Albatta, shaytonni yenga olganlar ko‘p [1:8]. Safarlardan qaytgach esa, albatta idora xodimlarini to‘plab, bir necha soat davomida xotiralarni so‘zlab berardi [1:13]. Po‘latov, shubhasiz, bu ko‘rgulikda Sattorovning aybi bor degan xulosaga kelgan, uni ikki xonali tor, sovuq, chakka o‘tuvchi uyda umrbod yashashga mahkum etgan [1:101].

**Fikrni xulosalash:** Alqissa, yorug‘ kunning qadriga yetmoq uchun qorong‘ulikni ham ko‘rish lozim ekanmi [1:8]?

**Fikrni xulosalash yoki aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan bog‘liqligi:** Demak, dunyoning formulasi: xaqiqatni iks deb turaylik, - Anvar stol ustidagi qog‘ozni chiroyli qalamini

olib yoza boshladi [1:17]. Nihoyat, ko‘cha eshigi og‘zida dadasi ko‘rindi [1:10]. Xullas, mashina gadoy topmas ko‘chalardan yurib shahar tashqarisiga chiqibdi [1:37].

**Taxmin-gumon:** Xolbuki, u damda Asadbekning ko‘zida yovuzlik emas, kuyovlardagina bo‘ladigan xirs o‘ti mavjud edi [1:22].

**Tasdiq-inkor:** To‘g‘ri, u ba‘zan quyushqondan chiqadi [1:25]. Darhaqiqat, boyga ham, kambag‘alga ham o‘sha yer, o‘sha kafan tegadi [1:235].

**Eslatish:** Ha, darvoqe, sadoqatni unutibmiz [1:27].

**Fikrni bayon qilish usuliga munosabat:** Nafsilamrini aytganda, suhbatni keskin uzishga nima sabab bo‘lganini Anvarning o‘zi ham aniq bilmaydi [1:82]. Gapning indallosi, bultur uylar buziladi, deb o‘lchab - netib ketishuvdi [1:251].

**Fikrning kimga tegishli ekanligi:** Latifa qilishlaricha, bir tasodif bilan yuzta ashulachi harbiyga chaqirilibdi [1:29].

**Achinish:** Afsuski, burgut chivinni yeyolmaydi-da [1:31]. Nachora, buvisi ko‘p ovqat ichakni yorib yuborajagiga ishontirib ketdi [1:224].

**Avvalgi fikrga aloqasini ifodalash:** Ayniqsa, idoralar soni qisqarayotgan damda biror imoratni ijaraga olishdan osonroq ish yo‘q [1:48]. Bek akasi uchun, xususan, shu qiz uchun joni lozim bo‘lsa berardi [1:257].

**Taajjub:** Tavba! Ishtoni yo‘qning ishtoni yirtiqqa kulgani shumi [1:87].

**Bayon qilingan fikrning tartibini ifodalash:** Avvalo, bu kechinmalarni bayon qila oluvchi so‘zamol emasdi, qolaversa, bu kechinmalar aytilgani bilan birovga, ayniqsa, bu olim yigitga ta‘sir etadimi yo‘qmi xudo biladi [1:238].

**Istak-mamnunlik:** Hayriyatki, nafrat qo‘zigan paytda onalik mehri ham uyg‘onib uni yomon hayollardan qutqaradi [1:255].

**Taxmin-gumon:** Ehtimol, uning o‘ligini ham ertami-indin xuddi o‘sha daraxtga osib qo‘yishar [2:274].

**Ajablanish:** - Vo ajabo, o‘zi ham menga shu gaplarni aytdi. Ammo unga uchrashganim hamon mashinam topildi [1:157].

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Ushbu asarda qo‘llangan kirish so‘zlar asarning badiiy qiymatini oshiradi va bu kitobxon uchun kitobni turli hissiyotlar bilan o‘qishiga estetik ta‘sir etadi. Ushbu usul orqali kitobxon voqealarni teran tushunishga va idrok etishga urinadi. Bu esa asarning badiiy qiymatini oshiradi. Kiritmalar gapning, xususan, badiiy matnning umumiy mazmuniga aloqador bo‘lsada, gapdagi biror bo‘lak bilan aloqaga kirishmaydi. Kiritmalar o‘zi bayon etayotgan fikrga (ishonch, gumon, tasdiq kabi...) fikrning birovga nisbatlanishini ham ifodalab kelishi mumkin. Kiritmalar boshqa gap bo‘laklari kabi sodda va murakkab bo‘ladi. Sodda kiritmalarni so‘z va so‘z-gaplar bilan ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin. Murakkab kiritmalarni esa so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar va murakkab birikmalar holatida ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tasniflarga misol qilib “Shaytanat” asarida qo‘llangan kiritmalarni ko‘rib chiqamiz. Badiiy matnda yozuvchi qahramonlarni turli xususiyatlarini umumlashtirgan holda tasvirllovchi vositalarga murojaat

qiladi. Ulardan biri parantezalarga murojaat qiladi: *Zelixon aynan shundan havotirga tushdi. Qamoqda yurib hamma narsani o‘rgandim, degan bu go‘dak ( Zelixonning oldida Elchin bir go‘dak edi) birinchi to‘qnashuvdayoq nobut bo‘lishi aniq edi* [1: 68].

Tilda badiiylikka xizmat qiluvchi vositalar qanchalik ajralib tursa ham, ularni badiiy matnga olib kirish ijodkorning mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. Chunki xalq tafakkuri durdonasi hisoblangan paremalarni badiiy-estetik vosita sifatida paranteza xarakterida berish asarning badiiyligini ta‘minlashga va yozuvchining g‘oyaviy maqsadini keng kitobxon ommasiga yetib borishiga zamin yaratib beradi. *Birgina shularni o‘zini haydab chiqarganda edi, so‘rab surishtirib, aybdorni topardi. Agar bu Mo‘ylovning (bobosi Stalinni “Mo‘ylov” deb atardi) istagi bilan amalga oshirilgan bo‘lsa boshini qaysi toshga urishi kerak* [1: 70].

Xususan, badiiy matn yaratishda ishtirok etadigan sintaktik birliklar orasida parantezalar alohida o‘rin tutishi bilan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Ular personaj nutqini individuallashtirish, personajning muayyan ijtimoiy muhitga tegishli kishi ekanini ta‘kidlash uchun ham vosita bo‘ladi. *Dardi ichida qolaverdi. Haqiqatni aytish shunaqa qiyin. Ayniqsa, nopok odamlarga ( Nasibaning nazarida Zohid ham nopoklardan edi) bas kelish mushkul.* [1: 77].

Shaytanat asarida ushbu misollarni ko‘raylik: *Kasalxonaga olib borsa, bundan melisa ogoh topadi, melisa bildimi, kavla-kavla boshlanadi. Busiz ham Shilimshiq bilan Jamshid (?) ning o‘limi ularning boshlari uzra balo bulutiday soya tashlab turibdi (Tohir Malik, “Shaytanat”romani).* Matnga kiritilgan punktuatsion parantezani bu tarzda qo‘llashdan yozuvchining ko‘zlagan lingvopoetik maqsadini nutqiy vaziyatlarni to‘liq qamrab olgan kontekstgina ocha oladi. Asarning boshlanish qismida Shilimshiq bilan Jamshid vahshiy tarzda o‘ldiriladi. Lekin ularning o‘limi sabablari ochilmagan, aybdorlar kim ekanligi mavhumligicha qolgan. Chuvrindining xayolidan o‘tgan fikrlari bayonida muallifning so‘roq belgisini paranteza sifatida kiritishi o‘sha holatlarga ishoradir [4:121].

*Har to‘kisda bir ayb deganlaridek, bu professorga matematika ilmi omon bo‘lsa bas, uningcha barcha haqiqat shu ilmida. Shu azim shaharning yana qaysidir mavzesida, yana qaysidir ikki xonalik sovuq (balki issiqdir – Xudo biladi), chakka o‘tayotgan (balki chakka o‘tmas) uyda bir fizik (balki kimyogar) “haqiqat faqat fizikada (balki kimyoda)” deb bahs yuritayotgan bo‘lsa, ajab emas.* Keltirilgan badiiy nutq parchasida qahramonning ushbu o‘ylayotgan fikrlari adolat istovchilar uchun o‘z haqiqatlarini isbotlashlari naqadar mushkul ekanligi ifodalangan [1:103]. Parantez konstruktsiyalarning badiiy matnga kiritilishi qahramon tavsifnomalarini «ichidan» (begona nutqning vositasi orqali) va «tashqaridan» (muallif nutqi yordamida) birlashtirishga imkon berishini ko‘ramiz. Xususan, personaj «ichki» va «tashqi» nuqtai nazarlar bilan kuzatilar ekan. *Hamisha qovog‘ini uyib yurgani uchun vujudida uyg‘ongan g‘azab o‘tining alangasi yuzlarida sezilmadi. Boshqa odamlarday qizarmadi, bug‘riqmadi, lablari uchmadi. Sirtga chiqish huquqidan mahrum alanga uni ichidan kemirardi. Bu haromxo‘rlarga (haromxo‘rlarga homtavoq ekani hayoliga kelmadi) duch kelgan kunini la‘natladi (ulardan ko‘rayotgan foydasini hisobga olmadi).*

Parantezalarning lingvopoetik jihatdan ahamiyatli yana bir o‘ziga xos turi punktuatsion belgilar shaklida matnga kiritilib, badiiylikni ta’minlash vositasiga aylanadi va lingvopoetik maqsadlar uchun xizmat qiladi. Biz punktuatsion parantezalar terminini qo‘llashni ma’qul ko‘ramiz, I.Toshaliyev o‘z tadqiqotlarida bu kiritmalarga nisbatan belgi-kiritma terminini qo‘llagan [4:120]. 1. *Ertaga katta amallar shohsupasiga ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan odamga (kimning zo‘ri bilan ko‘tarilar ekan?) bu xilda bezbetlarcha (!) muomala qilishlaridan bir g‘azablansa, o‘zining bu olchoqlar (!) oldida nochor o‘tirishidan o‘n g‘azablendi. Majlisda otashin nutqlar irod etuvchi, xatto zo‘r notiqnlarni ham sarosimaga solib qo‘yuvchi xalq fidoiysi qayda-yu, uchta muttaha (!)ga gapini aytolmay mum tishlab o‘tiruvchi nochor odam qayda!* [1:123]. 2. *Ko‘zini ochganda to‘shak ustida Noilasi yo‘q edi. To‘shak ustida omonat o‘tirgan Zaynab – Asadbekning (!) qizi unga qaramasdi.* [1:165]. Keltirilgan badiiy nutq parchasida qahramonning suhbatdoshi fikridan norozilik, unga nisbatan yuragida kechayotgan qarama-qarshi ziddiyatlar tadrijini ta’kidlash maqsadida muallif punktuatsion parantezani kiritgan. So‘roq va taajjub ottenkasini o‘zida mujassam etgan tinish belgilar shaklidagi paranteza qahramon qalbidagi kechinmalarni bo‘rttirib, qabariqlashtirib aks ettirishga xizmat qilgan. Bu esa asar mazmunini tushunarliroq ifodalashga xizmat qilgan.

*Zaynab seskandi. Ammo qo‘llarini qutqazmoqqa tirishmadi. Uning bilagini ushlagan qo‘l begona emas, tanish edi. Zaynab yovqarash bilan, yalt etib dushmaniga qaradi, (ha u yori emas, dushmani edi) o‘rnidan turdi* [1:165]. Ushbu gapimizda ba‘zan qahramon boshqaning nutqini tinglab o‘tirarkan, boshqaning nutqi tarkibiga qahramon ko‘nglidan o‘tgan fikrlar paranteza shaklida ifodalanib kiritiladi, bunda ham paranteza kuchli poetik ta’kid oladi, hissiy-emotsional yuzaga kelishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu gap orqali yuqoridagi fikrlarni ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Kiritma gaplarga oid bir necha misollarni ko‘rib chiqamiz. Ushbu misollarda kiritma gaplar har xil ma’noda qo‘llanganligi bilan bir biridan farq qiladi. *Tipirchilayverganidan chizimcha qo‘l-oyog‘ini shilib yuborgan edi. Chizimcha yechilgach, shilingan yerlari lovullay boshladi. Lekin Elchinni hozir bu emas yuragidagi o‘t ko‘proq qiynardi. U Jamshidning tashrifini qisqagina qilib aytib berdi. (Tepki yeganini shubhasiz yashirdi)* [1:131]. *Shu shu bo‘ldi-yu, u G‘ilay Shomilning yonidan doimiy joy oldi. Maskvadan kelgan toza aroq (Shomil shunday deb baho berdi)lardan birini olib chiqqach, martabasi yana ham yuqorilaganday bo‘ldi* [2:277]. *Ismoilbey ham, uning tengqurlari ham Mesxetiya yo‘l yo‘q ekaniga ishona boshlashgan edi. Demokratiya degan gap chiqdi-yu, yana umid chirog‘i yonganday bo‘ldi. (Ana shu umid chirog‘ining oxir - oqibat uylarga o‘t qo‘yagani kim o‘ylabdi?) Yuragida o‘ti borlar Maskvaga qatnay boshlashadi* [2:295]. *Haydar (u kunlarda “Kesakpolvon” “unvoni” ga musharraf bo‘lmagan edi) o‘sha kech “ov” da edi. Kasalxona kiyimida g‘ujanak bo‘lib yotgan bolaga avval e’tibor bermadi.* [2:333]. *Asadbek qizining naqadar iflosligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa yanada yaxshi! Ungacha Zaynabning yana bir yumushi bor – uydagi gaplarni yetkazib turadi (Bunisi endi Xosilboyvachchaning xom hayoli. U Asadbekning uyda, ayniqsa, xotini, farzandlari huzurida ishdan gapirish odati yo‘qligini bilmaydi).* [2:367]. *Biron-bir ayol hiyonat*

*ko‘chasiga kirsam, eridan (Xudodan emas!) qo‘rqadi. Oilasi buzilishidan cho‘chidi. O‘ynashining bag‘ridan chiqib, bolachasini bog‘chadan olib, eriga shirin taom tayyorlab o‘tiradi. Zaynab u toifadan emas [3:743].*

*Oqibatda bu yigitlar Xongireyning vakili ixtiyoriga o‘tib, uning topshirig‘i bilan poyloqchilik qilishayotgandi. Bundan ikki maqsad ko‘zlangan edi: biri – Kozlov shu yerga ham kelishi mumkinligi bo‘lsa (buning haqiqatdan yiroqligini o‘zlari ham bilishadi), ikkinchisi – asosiysi – Zaynabni poylash, buyruq berilsa garovga olish [3:745]. Uzoq yillar mobaynida yelkama-yelka turgan do‘stining birdan yo‘qlik dunyosiga ketishi Kesakpolvonday bemehr odamda ham ikki turdagi tashvish uyg‘otdi. Biri yaqin insonidan ayrilish tashvishi bo‘lsa, ikkinchisi (muhimrog‘i) uning o‘rnini egallash. Kesakpolvon mana shunga tayyor emasdi [3:746].*

**XULOSA.** Shuni aytish joizki, parantezalarning lingvopoetik xususiyatlari juda ham katta va qamrovli muammo bo‘lib, ularni yanada kengroq, batafsilroq tahlil etib chiqishimiz mumkin. Biz yuqorida bu lingvopoetik xususiyatlarning asosiy nuqtalariga e‘tibor qaratdik. O‘zbek adabiyotidagi nasriy asarlar tilini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, Tohir Malik, Erkin A‘zam, Sh.Xolmirzaev, Xurshid Do‘stmuhammad, A.Qodiriy kabi ko‘plab yozuvchilar o‘z asarlarida parantezalarning lingvopoetik imkoniyatlaridan salmoqli darajada foydalangan deyishimiz mumkin [4:122]. Ayniqsa, iqtidorli yozuvchi T.Malik asarlarida parantezalar, xususan, ularning kiritma turi yozuvchining uslubini belgilaydigan darajadagi omillardan biriga aylangan. Uning deyarli barcha asarlarida parantezalar vositalaridan kerakli o‘rinlarda foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Tohir Malik. Shaytanat. I jild. 1-kitob. Toshkent: “O‘qituvchi”. 2018. 1-266-betlar.
2. Tohir Malik. Shaytanat. I jild. 2- kitob. Toshkent: “O‘qituvchi”. 2018. 267-534-betlar
3. Tohir Malik. Shaytanat. I jild. 3- kitob. Toshkent: “O‘qituvchi”. 2018. 535-795-betlar.
4. D.Jamoliddinova . Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent-2009.